



IFODALI O'QISH VA NOTIQLIK SAN'ATI: NAZARIY ASOSLAR, TURLARI HAMDA AMALIY VOSITALAR

Mamayusupova Farida Ziyodulla qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti 1-kurs

Ilmiy rahbar: Hakimova Farida

Annotatsiya: Ushbu maqolada ifodali o'qish va notiqlik san'atining nazariy asoslari, ularning o'zaro bog'liqligi hamda o'qish jarayonida qo'llaniladigan amaliy vositalar yoritilgan. Tadqiqotda Sharq va G'arb notiqlik an'analari, lirik, epik va dramatik asarlarni ifodali o'qishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, aruz vaznidagi she'rlarni ifodali o'qishning ritmik va ohangdorlik talablari ham ilmiy nuqtai nazardan asoslab berilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы выразительного чтения и искусства ораторства, их взаимосвязь и практические средства, применяемые в процессе чтения. Анализируются традиции восточного и западного красноречия, особенности выразительного чтения лирических, эпических и драматических произведений. Также раскрываются ритмические и интонационные особенности чтения стихов в арузном размере.

Annotation: This article explores the theoretical foundations of expressive reading and the art of oratory, emphasizing their interrelation and practical techniques used in the reading process. The study analyzes Eastern and Western rhetorical traditions as well as the specific features of expressive reading in lyric, epic, and dramatic works. The rhythmic and melodic aspects of reading poems written in the aruz meter are also examined from a scientific perspective.



Kalit soʻzlar: ifodali oʻqish, notiqlik sanʼati, intonatsiya, aruz, badiiy matn, oʻqish vositalari, Sharq notiqligi.

Ключевые слова: выразительное чтение, ораторское искусство, интонация, аруз, художественный текст, средства чтения, восточная риторика.

Keywords: expressive reading, oratory art, intonation, aruz, literary text, reading techniques, Eastern rhetoric.

Ifodali oʻqish inson nutq madaniyatini shakllantiruvchi, soʻzning badiiy va maʼnaviy kuchini namoyon etuvchi muhim jarayondir. Adabiy matnni faqat toʻgʻri oʻqish emas, balki uning mazmunini his etib, tinglovchiga taʼsirchan tarzda yetkazish oʻquvchidan ham, oʻqituvchidan ham yuksak mahoratni talab etadi. Shuning uchun ifodali oʻqish bugungi taʼlim jarayonida nafaqat estetik, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega boʻlgan faoliyat sifatida eʼtirof etilmoqda. Ifodali oʻqishning asosiy maqsadi – badiiy asarda mujassam boʻlgan gʻoya va tuygʻularni ovoz, intonatsiya, pauza, urgʻu va ritm kabi vositalar orqali toʻliq ochishdir. Ushbu jarayon oʻquvchining fikrlash madaniyati, tasavvuri va his-tuygʻu dunyosini boyitadi. Ayniqsa, bolalarda nutq ohangini toʻgʻri shakllantirish, mantiqiy bogʻlanishlarni anglash, soʻz boyligini kengaytirish kabi koʻnikmalar aynan ifodali oʻqish mashgʻulotlari orqali rivojlanadi. Ifodali oʻqish sanʼati oʻz ildizlarini qadimgi Yunoniston notiqlik maktabidan olgan boʻlib, u zamonaviy “Notiqlik sanʼati — bu xalqning asrlar davomida shakllangan madaniy va ruhiy boyliklarining merosi.”[1;232–243]Sharq adabiyoti va soʻz sanʼatida ham chuqur iz qoldirgan. Yunon faylasuflari nutqning mantiqiy tuzilishi, taʼsirchanligi va tinglovchini ishontirish usullarini ishlab chiqqan boʻlsalar, Sharq allomalari soʻzning ruhiy taʼsiri, ohangdorligi va maʼnaviy goʻzalligiga alohida eʼtibor berganlar. Shu bois, ifodali oʻqish nafaqat tilshunoslik, balki notiqlik, psixologiya va pedagogika bilan ham uzviy bogʻliqdir. Mazkur maqolada ifodali oʻqishning nazariy asoslari, uning turlari, Sharq va Gʻarb notiqlik anʼanalari hamda amaliy vositalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi taʼlim tizimida oʻqish



jarayonini faollashtirish, o'quvchilarda badiiy nutqni his etish va estetik didni shakllantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ifodali o'qish nutq madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, u badiiy asarni estetik idrok etish, mazmunini chuqur anglash va tinglovchiga to'laonli yetkazish san'atidir. Bu jarayon inson tafakkurining, hissiyotining hamda nutqiy mahoratining uyg'unlashuvini talab etadi. "Maqola Qozog' notiqlik maktabining metodologik tamoyillarini umumiy etn madaniy jarayonning uzluksizligi sifatida ko'rib chiqadi." [2; 63–82] Ifodali o'qishning nazariy asoslari fonetika, stilistika, psixologiya va estetika fanlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning har biri so'zning ohangi, ma'nosi va ta'sirchanligini yoritishda muhim o'rin tutadi. Ifodali o'qishning mohiyati, avvalo, so'zning badiiy kuchini ochishdan iborat. Har bir matnda muallifning maqsadi, g'oyaviy yo'nalishi va hissiy holati yashiringan bo'ladi. O'quvchi yoki o'qituvchi ushbu holatni to'g'ri anglab, ovoz, intonatsiya va urg'u orqali ifoda etganida, matn jonlanadi, u tinglovchi qalbiga ta'sir qiladi. Shu sababli ifodali o'qish faqat to'g'ri talaffuzni emas, balki mazmunni his etish, uni shaxsiy kechinma bilan uyg'unlashtirishni ham talab etadi. Nazariy jihatdan ifodali o'qishning markazida intonatsiya tushunchasi turadi. Intonatsiya matnning ohangdorligini, kayfiyatini va hissiy tusini belgilaydi. U orqali so'zlanuvchi gapning maqsadi, urg'u nuqtasi va mantiqiy bo'linmalari aniqlanadi. Pauza, temp, urg'u va ritm kabi fonetik vositalar esa intonatsiyaning ichki tuzilishini tashkil etadi. Ana shu elementlarning uyg'unligi o'qish jarayonida tabiiylik va ta'sirchanlikni ta'minlaydi.

Ifodali o'qish shuningdek, nutqiy muloqotning psixologik tomonlarini ham qamrab oladi. O'qituvchi yoki notiq matnni o'qish jarayonida tinglovchining diqqatini boshqaradi, ularning hissiy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois o'qish paytida ovozning ohangi, yuz ifodasi, ko'z qarashi va hatto tana holati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning barchasi tinglovchi bilan ruhiy aloqa o'rnatishga xizmat qiladi. Tarixan ifodali o'qish notiqlik san'atining uzviy qismi sifatida shakllangan. Qadimgi Yunoniston va Rimda notiqlik maktablari nutqni to'g'ri



qurish, tinglovchiga ta'sir ko'rsatish va his-hayajonni yetkazishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan. Sharq an'anasida esa ifodali o'qish so'zning ma'naviy go'zalligini, ma'no teranligini ochib berish bilan bog'liq bo'lgan. "Qozog' notiqligi — qadriyatlar tizimini shakllantirgan ulug'vor ruhiy olamlardan biridir." [3;351–361] Bu ikki madaniy yo'nalishning uyg'unlashuvi hozirgi davrda o'qish madaniyatining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Zamonaviy ta'lim jarayonida ifodali o'qish o'quvchilarda badiiy tafakkurni rivojlantirish, estetik didni shakllantirish va so'z san'atiga hurmat tuyg'usini uyg'otishda muhim o'rin tutadi. Badiiy matnni his etib, uni to'g'ri ovoz bilan o'qiy olish o'quvchi shaxsida so'zning kuchini anglash va fikrni aniq ifodalash malakasini oshiradi. Shunday ekan, ifodali o'qishning nazariy asoslarini chuqur o'rganish, uni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish pedagogik jarayonning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ifodali o'qishning ilmiy asoslari shuni ko'rsatadiki, bu jarayon faqat texnik mahorat emas, balki shaxsning ichki dunyosi, tafakkuri va his-tuyg'ulari bilan chambarchas bog'liq ijodiy faoliyatdir. So'zning ohangi, ritmi va hissiy kuchi orqali inson o'z kechinmalarini ifoda etadi, shu tariqa so'z san'ati orqali go'zallik va ma'naviyatni tinglovchiga yetkazadi. Ifodali o'qish — bu matnni faqat ovoz chiqarib o'qish emas, balki uning mazmuni, hissiy ohangi va badiiy go'zalligini tinglovchiga to'liq yetkazish jarayonidir. O'quvchi yoki o'qituvchi matnni o'qir ekan, u nafaqat so'zlarni talaffuz qiladi, balki ularning orqasida yashiringan tuyg'ular, holatlar va fikrlarni jonlantiradi. Shuning uchun ham ifodali o'qish san'atida ovoz, intonatsiya, pauza, temp, urg'u, mimika va imo-ishoralar kabi vositalar juda muhim o'rin tutadi. Ifodali o'qishning eng muhim vositalaridan biri — intonatsiyadir. U so'z va gaplarning ma'nosini to'liq ochish, hissiy kayfiyatni ifodalash imkonini beradi. Intonatsiya yordamida o'qilayotgan matn jonlanadi, tinglovchining diqqatini jalb qiladi. Masalan, shodlik, hayrat, g'am yoki g'azab holatlarini intonatsiya orqali o'quvchi tabiiy tarzda namoyon eta oladi. Shu sababli, har bir so'zning ma'nosi bilan birga uning ohangdorligini his etish ham zarurdir.



Pauza ham ifodali o‘qishning ajralmas vositasidir. To‘g‘ri qo‘yilgan pauza matnning mantiqiy tuzilishini belgilaydi, tinglovchiga aytilgan fikrni anglashga imkon beradi. Ba‘zan qisqa sukut so‘zdan ko‘ra ko‘proq ma‘no beradi. Ayniqsa, dramatik asarlarda pazalar orqali obrazlarning ichki kechinmalari, fikrlash jarayoni yoki his-tuyg‘ulari yoritiladi. Ifodali o‘qishda urg‘u va temp ham muhim ahamiyatga ega. Urg‘u yordamida muhim fikrlar ajratib ko‘rsatiladi, temp esa matnning umumiy ritmini belgilaydi. Juda tez o‘qish matnning mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi, juda sekin o‘qish esa tinglovchini zeriktiradi. Shuning uchun o‘qish tezligi matn janriga, mazmuniga va hissiy ohangiga mos bo‘lishi lozim. “Jamoat oldida nutq so‘zlash muhim ko‘nikma bo‘lib, muvaffaqiyatga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi ... Nutq paytida qo‘rquvni boshqarish ko‘plab insonlar uchun katta qiyinchilik tug‘diradi.”[4;82-96] Ovoz balandligi va tembr ham ifodali o‘qishning muhim vositalaridan biridir. Ba’zi asarlar past, yumshoq ohangda o‘qilganda o‘zining tabiiy go‘zalligini topadi, boshqalari esa balandroq, ishonchli ohangni talab qiladi. Ovozning tabiiyligiga e’tibor berish, uni sun’iy ravishda o‘zgartirmaslik zarur. Ovozdagi tabiiylik va samimiyat tinglovchida ishonch uyg‘otadi. Ifodali o‘qishda faqat ovoz vositalari emas, balki mimika va imo-ishoralar ham muhim rol o‘ynaydi. Insonning yuz ifodasi, ko‘z qarashi, qo‘l harakatlari matn mazmunini yanada jonli qiladi. Ayniqsa, o‘quvchilarga she’r yoki dramatik parcha o‘qitilayotganda bu vositalardan to‘g‘ri foydalanish o‘quv jarayonini ta’sirchanroq qiladi. Ammo bularni me’yorida qo‘llash, ortiqcha hissiyotdan saqlanish zarur, chunki maqsad — matn mazmunini ifoda etish, tomoshabin oldida sahnalashtirish emas. Ifodali o‘qish vositalarining barchasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Ularning uyg‘un qo‘llanishi o‘qish jarayonini badiiy va ta’sirchan qiladi. Har bir o‘quvchi yoki notiq o‘z ovoz imkoniyatlarini, talaffuz madaniyatini, hissiy ifoda usullarini bilishi kerak. Ifodali o‘qishning asosiy maqsadi — so‘zning badiiy kuchini ochish, tinglovchida estetik zavq uyg‘otish va muallif fikrini to‘liq yetkazishdir. Xulosa qilib aytganda, ifodali o‘qish vositalarini chuqur o‘rganish va amaliyotda qo‘llay bilish



o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantiradi, badiiy matnga nisbatan estetik munosabatini shakllantiradi. O'qituvchilar uchun esa bu vositalarni o'zlashtirish o'quv jarayonida matnning ta'sirchanligini oshirish, tinglovchilarning e'tiborini jamlash va ularning his-tuyg'ulariga yetib borishning eng samarali yo'lidir. Ifodali o'qish vositalariga intonatsiya, pauza, mimika, imo-ishoralar, ovoz balandligi va ritm kiradi. O'qituvchi ushbu vositalarni to'g'ri qo'llash orqali o'quvchida matnga nisbatan emotsional munosabat uyg'otadi. Shuningdek, badiiy asarni o'qishda personajlarning ruhiy holati va muallif pozitsiyasini anglash, ularning ichki kechinmalarini ifoda etish katta ahamiyatga ega. Ifodali o'qish o'rganilayotgan matn turiga qarab quyidagicha tasniflanadi:

Lirik asarlarni ifodali o'qish – his-tuyg'ularni, kechinmalarni yumshoq, ohangdor tarzda ifodalashni talab etadi.

Epik asarlarni ifodali o'qish – voqealarni ketma-ketlikda, obrazlar harakatini aniq tasvirlash asosida o'qiladi.

Dramatik asarlarni ifodali o'qish – dialogik shaklga ega bo'lib, obrazlarning xarakteri, kayfiyati va ruhiy holatini ovoz orqali ifodalashni talab etadi.

Aruz vaznidagi she'rlarni ifodali o'qish – maxsus ritmik tuzilishga asoslanadi, bu esa she'r musiqiyligini, ohangdorligini saqlab qolish uchun aniq talaffuz va urg'u bilan o'qishni talab qiladi. Ilmiy maqolamiz yakunida shuni ta'kidlash mumkinki, ifodali o'qish va notiqlik san'ati zamonaviy ta'lim jarayonida nafaqat bilimni yetkazish vositasi, balki o'quvchilarning nutqiy va estetik tarbiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. "Nutq kompetensiyasi — bu mavzuni o'rganish jarayonida shakllanadigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui bo'lib, o'z fikrini erkin ifoda etish imkonini beradi." [5;172-186] Nazariy jihatdan bu san'at so'zning kuchi, intonatsiya va pauzalardan samarali foydalanish orqali auditoriya e'tiborini jalb qilish imkonini beradi. Turlari esa turlicha bo'lib, ularning har biri maqsad va vazifaga qarab qo'llaniladi: dramatik, badiiy, ilmiy yoki ommaviy nutq shakllari turli kontekstlarda o'ziga xos ifodalilikni ta'minlaydi. Amaliy vositalar esa



o'quvchining nutq madaniyatini oshirish, emotsional qabulni kuchaytirish va tinglovchi bilan samarali aloqa o'rnatish imkonini beradi. Shu bilan birga, ifodali o'qish va notiqlik texnikalari muntazam mashq, ijodiy yondashuv va nutqiy madaniyatni chuqur anglashni talab qiladi. Umuman olganda, mazkur san'atning rivoji o'quvchilarda nafaqat bilimga ega bo'lish, balki uni jonli, tushunarli va ta'sirchan tarzda yetkazish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Qadimgi davr va Sharq notiqlik san'ati tajribasi insoniyat madaniyatida nutq va so'z san'atining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Qadimgi yunon va rimda notiqlik – sof ilmiy va madaniy faoliyatning ajralmas qismi bo'lib, Aristotelning “Ritorika” asari orqali nutq san'ati nazariy asoslarini yaratgan. U yerda nutqning mantiqiy tuzilishi, tinglovchi psixologiyasini hisobga olish va emotsional ta'sir usullari batafsil yoritilgan. Shu bilan birga, Rim notiqchilari Mark Tulliy Tsitseron va Kvintilian nutqiy mahoratni shakllantirish va tarbiyalash usullarini amaliyotda qo'llagan. Sharq madaniyatida esa notiqlik san'ati ruhiy va axloqiy me'yorlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Xitoyda Konfutsiy ta'limotida nutqning maqsadi nafaqat fikrni yetkazish, balki tinglovchiga tarbiya berish, ularni axloqiy jihatdan uyg'otish hisoblangan. Hindiston va Fors an'analari esa o'z nutqiy maktablarida badiiy ifoda, she'riy intonatsiya va hikmatli so'zlarni samarali qo'llashni o'rgatgan. Sharqiy notiqlikda ruhiyat va estetik hislar nutqning markazida turib, auditoriya bilan hissiy aloqa o'rnatish muhimligi ta'kidlangan. Shunday qilib, qadimgi va Sharq notiqlik tajribasi bizga nutq san'ati nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki tarbiyaviy, madaniy va estetik vazifalarni ham bajaradigan murakkab va boy jarayon ekanini ko'rsatadi. Bu tajriba zamonaviy ifodali o'qish va notiqlik texnikalarini rivojlantirishda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Malikova, A. M. & Imanjussip, R. N. 2023. Milliy teatr kontekstida notiqlik san'atining falsafiy mohiyati. L.N. Gumilyov nomidagi Yevroosiyo Milliy Universiteti Ilmiy axboroti. Tarixiy fanlar. Falsafa. Dinshunoslik.



2. Raulbek Raev, D., & Seitkozha, Y.2023. Qozog‘ madaniyatidagi notqlik. Turkic Studies Journal.

3. Malikova, A. M., Bolyssova, K. M., & Rakimzhanova, S. K. 2024. Notqlik san‘atining qadriyatga asoslangan tushunchalari. Karaganda Universiteti Tarix va Falsafa Ilmiy Axboroti.

4. García-Monge, A., Guijarro-Romero, S., Santamaría-Vázquez, E., Martínez-Álvarez, L., & Bores-Calle, N. 2023. Jamoat oldida nutq so‘zlashdagi qo‘rquvni yengish: Corp-Oral dasturini baholash. Frontiers in Human Neuroscience.

5. Davlatova, H. U., Umirzaqova, S. G., O‘rinboyeva, G. D., Umirzaqov, Q. T., Makhsudova, H. U., & Abdurakhmanova, K. (2023). Notqlik san‘ati: Nutq kompetensiyasini rivojlantirish. Andijon Davlat Chet Tillari Instituti, O‘zbekiston.